

SAMARQAND VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT

2020- yil 1- dekabr holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)



Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.


Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni


(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobilij o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z or-nida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bos-qichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni


(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2020-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

4



Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



■ 2019- y. ■ 2020- y.


Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-noyabr oylarida)



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(yanvar-noyabr oylarida, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



Oilaviy korxonalar soni (1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra 6 965 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 440 taga yoki 53,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 6 589 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 289 taga yoki 53,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2020- yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 2 486 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 434 taga yoki 21,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra 20 314 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4 038 taga yoki 25,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 19 369 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3 894 taga yoki 25,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2020- yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 4 434 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 58 taga yoki 1,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni

(2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

8



Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra 593 tani tashkil etib, ulardan 577 tasi yoki 97,3 %'i faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 57 taga yoki 10,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatimizda 77 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-noyabr oylarida, birlikda)



**Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalarining davlatlar kesimida soni**
(2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

9




**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital
ishtirokidagi korxonalar soni**
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

	2019- yil	2020- yil
Jami	520	577
shu jumladan:		
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	54	71
Sanoat	287	295
Qurilish	34	36
Savdo	73	88
Tashish va saqlash	12	15
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	18	18
Axborot va aloqa	3	4
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	6	6
Boshqa turlar	33	44

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

10



**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

11


	Jami	<i>shundan:</i>	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Samarqand viloyati	577	401	176
Samarqand sh	248	155	93
Kattaqo'rg'on sh	17	14	3
tumanlar:			
Oqdaryo	31	28	3
Bulung'ur	26	12	14
Jomboy	39	33	6
Ishtixon	14	7	7
Kattaqo'rg'on	11	10	1
Qo'shrabot	19	9	10
Narpay	5	4	1
Payariq	17	9	8
Pastdarg'om	28	21	7
Paxtachi	9	4	5
Samarqand	40	32	8
Nurobod	10	10	
Urgut	50	44	6
Toyloq	13	9	4

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Samarqand shahrida 248 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 43,0 %), Urgut 50 ta (8,7 %), Samarqand 40 ta (6,9 %), eng kamlari esa Narpay 5 ta (0,9 %), Paxtachi 9 ta (1,6 %), hamda Nurobod 10 ta (1,7 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

12




2020- yil 1-dekabr holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Samarqand shahrida (29,4 %), Urgut (8,7 %), Pastdarg'om (8,5 %), Samarqand (7,4 %), Payariq (5,4 %), Ishtixon (5,3 %), Kattaqo'rg'on (4,9 %), Toyloq (4,2 %), Bulung'ur va Oqdaryo (3,9 %), Jomboy (3,8 %) Kattaqo'rg'on shahri (3,4 %), Narpay (3,3 %), Nurobod (2,9 %), Paxtachi (2,6 %) va Qo'shrabot (2,4 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni


(2020- yil yanvar-noyabr oylarida, birlikda)

2020- yil yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Samarqand shahrida (25,8 %), Pastdarg'om (8,1 %), Samarqand (8,0 %), Urgut (7,8 %), Ishtixon (6,0 %), Kattaqo'rg'on (5,7 %), Payariq (4,9 %), Bulung'ur va Toyloq (4,6 %), Jomboy (4,4 %), Oqdaryo (4,0 %), Kattaqo'rg'on shahri (3,8 %), Narpay va Nurobod (3,3 %), Qo'shrabot (2,9 %) va Paxtachi (2,8 %) tumanlari ulushiga tegishli.




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni

(2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni


(2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Samarqand shahrida (36,1 %), Urgut (8,1 %), Samarkand (7,7%), Pastdarg'om (7,2%), Kattaqo'rg'on (5,2 %), Payariq (4,7 %), Kattaqo'rg'on shahri (4,5 %), Oqdaryo va Jomboy (3,7 %), Bulung'ur (3,6 %), Ishtixon (3,5 %), Nurobod (3,3 %), Toyloq (3,0 %), Qo'shrabot (2,1 %), Paxtachi (2,0 %) va Narpay (1,5 %), tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

**Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning
qo'shma korxona va xorijiy korxonalariga taqsimlanishi**
(2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, %da)

14




2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni

(2020-yilning yanvar-noyabr oylarida, birlikda)



15



2020-yilning yanvar-noyabr oylarida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda Samarqand shahrida (22,8 %), Samarqand (13,5 %), Pastdarg'om (10,9 %), Payariq (8,2 %), Urgut (7,8 %), Kattaqo'rg'on (6,2 %), Toyloq (5,8 %), Jomboy (5,5 %), Narpay (4,3 %), Oqdaryo (3,8 %), Ishtixon (3,7 %), Bulung'ur (3,3 %), Kattaqo'rg'on shahar (2,0 %), Paxtachi (1,0 %), Qo'shrabot (0,8 %) va Nurobod (0,4 %) tumanlari ulushga ega.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(2020-yilning yanvar-noyabr oylarida, birlikda)



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqtı-vaqtı bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrida mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagи “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida” 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirdorlik subyektlariga ajratiladi.

The screenshot shows the homepage of the State Statistics Committee of Uzbekistan. The main title is "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI". The left sidebar has a menu titled "RASMIYIY STATISTIKA" with various links like "El'on qilish taqvim", "Metama'lumotlar", etc. The central part shows a search form for "Klassifikator" (Classification code) with fields for "STIR kodini kiritning" (Enter STIR code) and "Rasmidagi kodni kiritning" (Enter code from document). A dropdown menu lists several options, with "Statistik klassifikatsiyalar" (Statistical classification) highlighted. To the right, there's a section titled "FOYDALI MA'LUMOTLAR" listing various reports and publications.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Statistik registrlarni yuritish
bo`limi**
Tel.: 66 235-14-42